




SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA
BOSHQARMASI



**SIRDARYO VILOYATIDA
MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARI
FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK
KO'RSATKICHLARI**
2021- yil yakuniga

SIRDARYO VILOYATIDA MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARI FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI


Mamlakatimizda madaniyat va san'at taraqqiy etmasa, jamiyat rivojlanmaydi. Qolaversa, taraqqiyotning chinakam samarasi boylik yoki kuch-qudrat darajasi bilan emas, milliy madaniyatning naqadar yuksakklikka ko'tarilgani bilan o'lchanishi xususida tarixiy misollar ko'p. Masalan, ingliz san'atshunos olimi F. R. Martin "Temuriylar singari san'ati va madaniyatini qadrlaydigan hukmdorlar Markaziy Osiyoda hech vaqt bo'lman", deb yozadi. Shu ma'noda, davlatimiz rahbarining milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishga doir tashabbusi tafakkur tarzimiz, hayotga munosabatimiz, millat va xalqning buguni, ertasini, navqiron avlod ma'naviy kamolotini, odamlarimizning nurli kelajagini yaratishga qaratilgan ishlarimizning tub ildizlarini ham o'z ichiga qamrab oladi, desak, yanglismagan bo'lamic.

Konsepsiya besh bobdan iborat. Unda kelgusida amalga oshirilishi lozim bo'lgan bir qator ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Jumladan, madaniyat sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, tizimdagи muassasalar huquqiy maqomini belgilash, ijodkorlarni ijtimoiy himoyalashning huquqiy bazasini, kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yaratish, madaniyat hamda san'at muassasalari moddiy-texnika imkoniyatlarini kengaytirish ko'nda tutilgan. Shuningdek, sohaga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini to'liq tatbiq etish, xalqaro festival va ko'rik-tanlovlarda chinakam iste'dod egalari ishtirokini ta'minlash, xorijiy tashkilotlar bilan ijodiy hamkorlikni yo'lga qo'yish kabi qator chora-tadbirlar belgilangan. Qaror asosida 2019-2020 yillarda O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi" hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan chora-tadbirlar dasturi, 2019 – 2022 yillarda yangi quriladigan, rekonstruksiya qilinadigan, kapital ta'mirlanadigan va to'liq jihozlanadigan madaniyat markazlarining manzilli ro'yxati ham tasdiqlandi.


Madaniy faoliyatda san'at sohasining ko'plab yo'nalishlarini to'liq qamrash, ularning faoliyatini to'g'ri baholash maqsadida soha mutaxassislarining maslahat organi bo'lgan tarmoq badiiy kengashlarini tuzishga muhtojlik mavjud. Endilikda tasarrufida madaniyat tashkilotlari bo'lgan davlat organlari va tashkilotlar, shuningdek, madaniyat tashkilotlari tomonidan teatr, musiqa va konsert faoliyati, sirk san'ati va tasviriy san'at, arxitektura va dizayn bo'yicha tarmoq badiiy kengashlarini tashkil etish huquqi qonun bilan mustahkamlandi.

**SIRDARYO VILOYATIDA MADANIYAT
VA SAN'AT MUASSASALARI FAOLIYATINING
ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI**

Teatrlar soni, birlikda



**Janrlar va faoliyat olib boriladigan
tillar bo'yicha teatrler soni
(2021-yil, birlik)**





2021- yil Sirdaryo viloyatida teatrler soni 1 tani tashkil etadi.

**SIRDARYO VILOYATIDA MADANIYAT
VA SAN'AT MUASSASALARI FAOLIYATINING
ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI**

Spektakllar (tomoshalar) soni, birlikda




**Teatrga tashrif buyurgan tomoshabinlar
soni, ming kishi**




3

**SIRDARYO VILOYATIDA MADANIYAT
VA SAN'AT MUASSASALARI FAOLIYATINING
ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI**

**Sirdaryo viloyatida teatrлarda faoliyat
yuritayotgan xodimlar soni, kishi**



**Faoliyat olib boriladigan
tillar bo'yicha teatrlar soni,
(2021- yil, %.)**



■ O'zbek ■ Qoraqalpoq ■ Rus ■ Aralash

SIRDARYO VILOYATIDA MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARI FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Muzeylar soni

2018




2019



2020



2021



2021-yil hududlar kesimida muzeylar soni, birlikda




2022-yil 1-yanvar holatiga
ko'ra, O'zbekistonda muzeylar soni 127 tani
tashkil etib, 2016-yilga nisbatan 30 taga
ko'paydi.

**SIRDARYO VILOYATIDA MADANIYAT
VA SAN'AT MUASSASALARI FAOLIYATINING
ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI**


**2021- yil hududlar bo'yicha muzeylarning ilmiy-
ma'rifiy ko'rgazma ishlari**

Ekskursiya tarzida qatnaganlar soni, ming kishi



SIRDARYO VILOYATIDA MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARI FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Muzeylardagi ekskursiya tarzida qatnaganlar soni, ming kishida




2021- yilda hududlar bo'yicha muzeylar fondlari.



SIRDARYO VILOYATIDA MADANIYAT
VA SAN'AT MUASSASALARI FAOLIYATINING
ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

2021- yilda eksponatlarning turi bo'yicha muzeylar fondi



Muzeylardagi eksponatlar soni **1656** ming donani tashkil etib, shundan **34,5** foizi arxeologik ashyolar, **20,0** foizi numizmatika, **17,7** foizi amaliy san'at, **10,6** foizi rang tasvir, **7,8** foizi maishiy va etnografiya, **5,9** foizi foto sur'atlar, **3,0** foizi boshqalar , va **0,5** foizi hujjatlar.

SIRDARYO VILOYATIDA MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARI FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Statistik ko'rsatkichlarga izoh

Madaniyat- inson faoliyati va shu faolliyatning ahamiyatini belgilovchi ramziy qurilmalar va asarlar majmuidir. Madaniyat [musiqa](#), [adabiyot](#), [badiiy tasvir](#), [me'morchilik](#), [teatr](#), [kinematografiya](#), turmush tarzi kabi faoliyatlarda namoyon bo'lishi mumkin.

Madaniy meros - bu xalqning yoki jamoaning moddiy va nomoddiy merosidir, uni saqlab qolish va keyingi avlodlarga etkazish uchun vasiyat qilingan. Bunga e'tiqodlar, bilimlar, badiiy ifodalar, me'yorlar va qadriyatlar, ijtimoiy amaliyotlar, urf-odatlar va urf-odatlar, joylar, ob'ektlar va madaniyatning har qanday boshqa ifodalari kiradi.

Madaniy meros obyektlari – moddiy va nomoddiy madaniy meros obyektlari.

Moddiy madaniy meros obyektlari – tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan ansamblar, diqqatga sazovor joylar va yodgorliklar.

Nomoddiy madaniy meros obyektlari – tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan urf-odatlar, xalq ijodiyoti (so'z, raqs, musiqa, tomosha san'ati), shuningdek ular hamda xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'ati bilan bog'liq bilimlar, ko'nikmalar, asbob-anjomlar, artefaktlar, madaniy makonlar".

Ansamblar – tarixan tarkib topgan hududda aniq ko'zga tashlanadigan, atrof manzarasi bilan umumiyligi yoki aloqadorligi tarixiy, arxeologik, me'moriy, estetik yoki ijtimoiy-madaniy qimmatga ega bo'lgan, ijtimoiy, ma'muriy, diniy, ilmiy, o'quv-ta'lim, istehkom, saroy, turarjoy, savdo, ishlab chiqarish va boshqa ahamiyatga molik hamda rassomlik, haykaltaroshlik, amaliy bezak san'ati, me'morchilik asarlari bilan bog'liqlikda alohida yoki o'zaro birgalikda turgan yodgorliklar, imoratlari va inshootlar guruhlari, shuningdek tarixiy tarhlarning hamda manzilgohlar imoratlarining qoldiqlari, landshaft arxitekturasi va bog'-rog' san'ati asarlari (bog'lar, istirohat bog'lari, xiyobonlar, sayilgohlar).

Diqqatga sazovor joylar – inson va tabiat ijodining mushtarak mahsuli, shuningdek tarixiy, arxeologik, shaharsozlik, estetik, etnologik yoki antropologik qimmatga ega bo'lgan hududlar, shu jumladan xalq hunarmandchiligi maskanlari, tarixiy manzilgohlar yoki shaharsozlik tarhi markazlari va tarixiy (shu jumladan harbiy) voqealar, yodgorliklar, atoqli tarixiy shaxslarning hayoti bilan bog'liq bo'lgan imoratlari, xotira joylari, tabiiy landshaftlar, shuningdek ko'hna shaharlar, shahristonlar, manzilgohlar, qarorgohlar imoratlarining madaniy qatlamlari, qoldiqlari, marosimlar bajo etiladigan joylar.



**Press-relizni tayyorlash uchun mas'ul:
Ijtimoiy soha va barqaror rivojlanish statistikasi bo'limi**



Sirdaryo viloyati Statistika
boshqarmasi



Manzil: 120100, Guliston sh.
birlashgan ko'chasi, 62-uy



Tel: +99867 239-86-26



e-mail:info@stat.uz



www.sirstat.uz



facebook.com/sirdaryo.viloyati